

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TO‘LAYEV DONIYOR BAXTIYOROVICH

**G‘ARBIY TYAN-SHANDA GREK YONG‘OG‘INING ISTIQBOLLI
SHAKLLARINI TANLASH VA TABIIY KO‘PAYISHINING EKOLOGIK
ASOSLARI**

**06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish.
O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya
o‘rmonlarini barpo etish**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

To‘layev Doniyor Baxtiyorovich

G‘arbiy Tyan-Shanda grek yong‘og‘ining istiqbolli shakllarini tanlash va tabiiy
ko‘payishining ekologik asoslari 3

Тулаев Дониёр Бахтиёрович

Экологические основы естественного возобновление и отбор
перспективных форм грецкого ореха в Западном Тянь-Шане..... 19

Tulaev Doniyor Bakhtiyorovich

Ecological bases of natural regeneration and selection of promising forms of
walnut in the Western Tien Shan 35

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works..... 38

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TO‘LAYEV DONIYOR BAXTIYOROVICH

**G‘ARBIY TYAN-SHANDA GREK YONG‘OG‘INING ISTIQBOLLI
SHAKLLARINI TANLASH VA TABIIY KO‘PAYISHINING EKOLOGIK
ASOSLARI**

**06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish.
O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya
o‘rmonlarini barpo etish**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022/1.PhD/Qx884 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kayimov Abdixalil**
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tuxtayev Bobokul Yorkulovich,**
biologiya fanlari doktori, professor

Misirova Surayyo Abdumutalovna,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 5 dekabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№549254-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 23 noyabr kuni tarqatildi.
(2023 yil 24 oktabrdagi 74-raqamli reyestr bayonnomasi).



E.T. Berdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

M.Z. Xolmurotov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

S.A. Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Grek yong‘og‘i dunyo bo‘yicha qimmatbaho oziq-ovqat mahsuloti hisoblanib, ko‘plab mamlakatlarda tabiiy tarqalgan va madaniy holda yetishtiriladi. Grek yong‘og‘i mevalarini eksport qilish maqsadida istiqbolli navlari asosida plantatsiyalar barpo etilgan. Jumladan, hududlarga mos bo‘lgan navlar asosida “Xitoyda 631,13 ming, AQSH da 147,71 ming, Turkiyada 124,553 ming, Meksikada 102,068 ming gektar maydonda yong‘oqzorlar mavjuddir”¹. Yong‘oq o‘rmonzorlarining tabiiy ko‘payishini tahlil etib borish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun yangi istiqbolli shakllarini tanlash muhim ahamiyatga egadir.

Dunyo mamlakatlarida grek yong‘og‘i tijorat miqyosida o‘stirish, turli iqlim-tuproq sharoitlariga mos bo‘lgan navlarni yaratish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. AQSH, Yangi Zelandiya, Niderlandiya, Xitoy, Turkiya, Ukraina kabi davlatlarda yong‘oq navlarini yaratish, ularning biokimyoviy tarkibini tadqiq qilish, genetik markerlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda Grek yong‘og‘ining istiqbolli shakllarini tanlash va navlarini yaratish, ko‘paytirish hamda ulardan sanoat plantatsiyalari va o‘rmonlar barpo etishda foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilib muayyan natijalarga erishilgan. Biroq mavjud yong‘oqzorlarning tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari hamda turning bioiqlim modelini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazilmagan. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish va o‘rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish»² bo‘yicha vazifalari belgilab berilgan. Bu borada o‘rmon fondi yer maydonlarida grek yong‘og‘ining istiqbolli shakllarini tanlab olish, mavjud yong‘oqzorlarning tabiiy ko‘payishini o‘rganish, kelgusida uning maydonini kengaytirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi PQ-3025 son «Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» gi, 2020 yil 6 oktabrdagi PQ-4850-son “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” ga qarorlari va boshqa meyoriy-xuquqiy xujjatlardagi vazifalarni ilmiy jihatdan asoslashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning mamlakat fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishlari respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda, dunyo bo‘yicha grek yong‘og‘ining istiqbolli shakllarini yaratish orqali mavjud yong‘oqzorlar hosildorgini oshirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlari keng rivojlangan. Ushbu yo‘nalishda AQSH da Chuck Leslie, Patrick J.Brown, Xitoyda Xiaoja Feng,

¹ WorldAtlas 2018

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони.

Huijuan Zhou, Saman Zulfiqar, Xiang Luo, Yiheng Hu, Li Feng, E. Malvolti, Keith Woeste, Peng Zhao, Ukrainada Vitalii Lutsiak, Taras Hutsol, Nataliia Kovalenko, Polshada Dariusz Kwar Sniewski, Zbigniew Kowalczyk kabi olimlar shug'ullanganlar va hozirgi paytda ular tomonidan olingan tadqiqot natijalaridan yong'oq yetishtirish miqdorini oshirish va tabiiy yong'oqzorlarni o'rganishda samarali foydalanilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarida yong'oqzorlarni o'rganish va uning istiqbolli shakllarini tanlash ishlari dastlab S.S.Kalmikov, M.T.To'ychiyev, SH.Kamolov, I.A.Azimov, S.N.Giyazov, K.SH.Shamsiyev, U.X.Holdorov, V.S.Shevchenko keyinchalik YE.A.Butkov, R.A.Azimov, D.K.Mamadjanov, S.B.Shamuradova, YE.S.Aleksandrovskiy, N.S.Xisaynov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan olib borilgan va turli iqlim sharoitli maydonlarda o'stirish uchun istiqbolli shakllar tanlab olingan. Biroq, tabiiy yong'oqzorlardagi tabiiy kupayish ko'rsatkichlari, tabiiy tarqalish arealini o'rganish ishlari amalga oshirilmagan.

Tadqiqotni dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universitetining №QX-YOA-QX-2018-147 "Grek yong'og'ining istiqbolli navlarini tanlash va ko'paytirish" (2018-2019 yy.) mavzusidagi yosh olimlar ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi G'arbiy Tyan-Shan hududidagi tabiiy yong'oqzorlardan uning istiqbolli shakllarini tanlash, yong'oqzorlardagi tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarini baholash va ekologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

erta bahorgi sovuq havo oqimi ta'sirida grek yong'og'i vegetativ va generativ organlarining zararlanish hamda qayta ko'payish darajasini tahlil etish;

tabiiy yong'oqzorlarni kompleks baholash orqali istiqbolli shakllarni tanlab olish;

G'arbiy Tyan-Shandagi tabiiy yong'oqzorlarning dengiz sathidan balandliklar va ekspozitsiyalar bo'yicha o'sib-rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash;

muhofaza etiladigan va himoyalangan tabiiy yong'oqzorlarning ko'payish ko'rsatkichlarini baholash;

MaxEnt dasturidan foydalanilgan holda, grek yong'og'ining ekologik bioiqlim modelini yaratish.

Tadqiqotning obyekti. Grek yong'og'i (*Juglans regia l.*) ning tabiiy yong'oqzorlari va istiqbolli shakllar, tarqalish areali.

Tadqiqotning predmeti sifatida grek yong'og'ining o'sib-rivojlanishi, tabiiy ko'payishi, hosilining sifati va hosildorligi, sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamliligi xizmat qiladi.

Tadqiqotning usublari. Bajarilgan tadqiqotlar dala, laboratoriya sharoitlarida, virtual va marshrutli kuzatuv uslublaridan foydalanilgan holda olib borildi, grek yong'og'i shakllarini seleksion baholash ishlari F.L.Shepotyev [1976] va O.V.Kolov, T.S.Musuraliv [2001] usublari, turning bioiqlim modelini ishlab chiqish ishlari S.J.Phillips, M.Dudic [2008] lar tomonidan tavsiya etilgan "Modelling of species distribution with Maxent: new extentions and a

comprehensive evaluation» uslubiga asosan, dala sharoitida tabiiy yong‘oqzorlarning holati, tabiiy o‘sishi va ko‘payish jarayonlari V.G Nesterov, A.V Pobedinskiy [1958] E.T.Berdiyev, H.F.Hamroyev [2012] va boshqalar tomonidan tavsiya etilgan uslub, olingan natijalarga statistik ishlov berish B.A.Dospexov [2011] uslubiga asosan bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor bahorgi kechki sovuqlarda grek yong‘og‘ining novda, barg, kurtak va gullarining 91% gacha zararlanganligi hamda barglarning zararlanish darajasi boshqa organlarga nisbatan 1,25-4,8 marta yuqoriligi aniqlangan;

bahorgi kechki sovuqlarda zararlangan organlarning qayta tiklanish darajasi 20-95,7% hamda gullarning qayta tiklanish ko‘rsatkichi eng past ya‘ni 20% ga teng ekanligi aniqlangan;

tabiiy yong‘oqzorlardan tanlangan shakllarni kompleks baholash orqali G‘azalkent-3, Sijjak -2 va Parkent-2 istiqbolli shakllari tanlab olingan bo‘lib, ulardagi yong‘oq mag‘zining chiqish darajasi Xumson-5 (57,8%), G‘azalkent-3 (60,4%), Sijjak-1 (57.1%), va Parkent-2 (72,7%) ekanligi aniqlangan;

tanlangan shakllarning vegetatsiya davomiyligi kuzatilganda, unga ko‘ra Sijjak-1 (204 kun) va Xumson-4 (208 kun) eng kam kun ekanligi aniqlangan;

G‘arbiy Tyan-Shandagi tabiiy yong‘oqzorlarning ko‘payish ko‘rsatkichlarini baholash orqali himoyalangan maydonlarda gomogenlik koeffitsiyenti $KG \geq 1$ ekanligi aniqlangan;

G‘arbiy Tyan-Shandagi tabiiy yong‘oqzorlarning ko‘payishda ekologik omillar, yoz mavsumidagi harorat va yillik yog‘ingarchilik muhim xisoblanib, ularning o‘zgarish ta‘siri natijasida yong‘oqzorlarning maydoni 400 km² ga qisqarishi aniqlangan;

MaxEnt dasturidan foydalanilgan holda grek yong‘og‘ining bioiqlim modelini yaratish asosida, 2070 yilga borib O‘zbekiston hududining 1,2% maydonida yong‘oqzorlarni tabiiy ko‘payishi uchun bioiqlim saqlanib qolishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

grek yong‘og‘i mevasining sifat ko‘rsatkichlari orasidan yong‘oq mag‘zining chiqish darajasi asosiy ko‘rsatkich sifatida baholanib, tanlangan shakllarda 38,2-63,3 % ni tashkil etgan;

xalqaro ko‘rsatkichlar bo‘yicha, yong‘oq mag‘zining chiqish darajasi 50% dan yuqori bo‘lgan shakl istiqbolli ekanligini inobatga olinib, Parkent-2, G‘azalkent-3, Sijjak-1 va Xumson-5 shakllari keng ko‘lamda foydalanish uchun tavsiya etilgan;

grek yong‘og‘ining tabiiy tarqalish modelini yaratish orqali kelgusida uning o‘sish arealini bashorat qilish, hamda o‘sish maydonlarini kengaytirish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, kelgusida yong‘oq o‘rmonlari arealini kengaytirish uchun istiqbolli shakllardan foydalanish samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Amalga oshirilgan dala tajribalarini aprobatsiya komissiyalari tomonidan o‘rganilib, ijobiy baholanganligi; ilmiy tadqiqotlar to‘g‘risidagi hisobotlarni ToshDAUning O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasida muhokama etilganligi va ijobiy baholanganligi; bajarilgan tajribalar eksperimental ma‘lumotlarning statistik tahlildan o‘tkazilganligi va

olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi; tadqiqot natijalari respublika va chet elda o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilishi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati G'arbiy Tyan-Shan hududidagi tabiiy yong'oqzorlarning holatini baholash orqali o'sib-rivojlanishi va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining aniqlanganligi, mavjud daraxtlarni kompleks baholash orqali meva sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan shakllarni tanlab olinganligi, MaxEnt dasturi asosida turning bioiklim modelini yaratish orqali grek yong'og'i tabiiy maydonlarining kelgusida o'zgarish dinamikasining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati G'arbiy Tyan-Shan tog' tizmasidagi o'rmon fonli yerlarida yong'oq o'rmonlarini tabiiy ko'payishiga sharoit yaratish, yangi plantatsiyalarini barpo etish va mavjud yong'oq o'rmonlarining mahsuldorligini oshirishga hizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'arbiy Tyan-Shanda grek yong'og'ining istiqbolli shakllarini tanlash va tabiiy ko'payishining ekologik asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Bo'stonliq tumani hududidagi tabiiy yong'oqzorlarni kompleks baholash natijalari asosida tanlab olingan Xumson-5 shakli Burchmulla davlat o'rmon xo'jaligida 2,0 gektar maydonda joriy etilgan (O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022 yil 7 dekabrda 03/21-6036-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida, yong'oqzorning hosildorligi 600 kg/ga ga ortgan va qo'shimcha iqtisodiy samaradorlik 12 mln. so'mni tashkil etgan;

Parkent tumani hududidagi tabiiy yong'oqzorlarni kompleks baholash natijalari asosida tanlab olingan Parkent-2 shakli Ohangaron davlat o'rmon xo'jaligida 2,0 gektar maydonda joriy etilgan (O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022 yil 7 dekabrda 03/21-6036-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida yong'oqzorning hosildorligi 500 kg/ga ortgan va qo'shimcha iqtisodiy samaradorlik 10 mln. so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dunyo miqyosida grek yong'og'ining istiqbolli navlar asosida plantatsiyalari barpo etilgan turlarini tanlashning dolzarbligi va zaruriyati

asoslangan, yong‘oqzorlarning ko‘payish ko‘rsatkichlari, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Grek yong‘og‘ining istiqbolli shakllarini tanlash va tabiiy ko‘payishini o‘rganishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida Markaziy Osiyoda va respublikamizda hududlarida yong‘oqzor o‘rmonlarining hozirgi holati, istiqbolli shakllarning seleksion baholash ko‘rsatkichlari, chet el hamda respublikamizdagi dastlabki va hozirgi kunlarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari, ularning yutuq va kamchiliklari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, internet ma‘lumotlari hamda ko‘plab olimlarning ilmiy ishlari o‘rganilib, yong‘oqzor maydonlardagi tabiiy tiklanishi va istiqbolli shakllarni tanlashning ilmiy asoslanganligi, daraxt-butata turlarini tanlashga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot natijalari tahlil etilgan hamda mavzuning dolzarbligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyekti, dasturi va uslubi**» deb nomlangan ikkinchi bobida kutilgan natijaga erishish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan tadqiqot ishlarining dasturi, uslubi va tadqiqot obyektining tuproq-iqlim sharoitlari bayon etilgan. Dasturda belgilangan masalalar dala tajribalari va laboratoriya tahlili orqali o‘rganildi. Dala tajribalari Respublikasining Bo‘stonliq tumani hududidagi tabiiy yong‘oqzorlarni o‘rganish va kompleks baholash natijalari asosida tanlab olingan Xumson-5 shakli Burchmulla davlat o‘rmon xo‘jaligida va Ohangaron davlat o‘rmon xo‘jaligida. Tadqiqot o‘tkazilgan hududning iqlim sharoitlariga tavsif berish uchun «Chimyon va So‘qoq» meteostansiyalarining ma‘lumotlaridan foydalanildi. Dala sharoitida tabiiy yong‘oqzorlarning holati, tabiiy o‘sish koordinatalari, hosildorligi, tashqi muhit omillariga chidamliligi, tabiiy ko‘payish darajasi, yong‘oqmevalarining xususiyatlari o‘rganildi. Laboratoriya sharoitida terib olingan yong‘oqmeva namunalari, yong‘oqlarning o‘sish koordinatalari ma‘lumotlari asosida mevalarning sifat ko‘rsatkichlari tahlil etildi, hamda turning bioiqlim modeli ishlab chiqildi. Grek yong‘og‘i shakllarini seleksion baholash ishlari F.L.Shepotyev [1976] ning ishlab chiqilgan “Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур”, turning bioiqlim modelini ishlab chiqish ishlari esa S.J.Phillips, M.Dudic [2008] lar tomonidan tavsiya etilgan “Modelling of species distribution with Maxent: new extentions and a comprehensive evaluation» uslubiga asosan olib borildi. Dala sharoitida tabiiy yong‘oqzorlarning holati, tabiiy o‘sishi va ko‘payish jarayonlarini o‘rganishda, Berdiyev E.T., Hamroyev H.F. va boshqalar, “O‘rmonchilik fanidan o‘quv qo‘llanma” Toshkent-2012 y., va olingan natijalarga statistik ishlov berish B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» [2011] uslubiga asosan bajarildi.

Tadqiqot ishlari dala, laboratoriya va marshrutli kuzatuv usullaridan foydalanilgan holda olib borildi. Dala tajriba ishlari Burchmulla davlat o‘rmon

xo'jaligida va Ohangaron davlat o'rmon xo'jaliklarining dalalarida tanlangan shakllarida turlarning 23 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan 300 donadan ko'p bo'lgan daraxtlarda. Tabiiy yong'oqzorlarning holati, tabiiy o'sishi va ko'payish jarayonlarini o'rganishda 1-10 yoshgacha bulgan niholarini kuzatish orqali amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning «**GreK yong'og'i istiqbolli shakllarini kompleks baholash**» deb nomlangan uchinchi bobida GreK yong'og'ining istiqbolli shakllarini tanlash ishlari Toshkent viloyatining Parkent (3 ta), Bo'stonliq (9 ta) va Ohangaron (1 ta) tumanlarida o'sib-rivojlanayotgan tabiiy yong'oqzorlarda olib borildi. Shimoliy va Janubiy hamda ularga yondosh bo'lgan JShq, SHShq va JG'ekspozitsiyalarning 41° shimoliy kenglik, 69° sharqiy uzunlikdagi maydonlarning dengiz sathidan 1001-2002 metr balandliklarda o'sib-rivojlayotganligi aniqlandi. Tanlab olingan shakllar orasida Ohangaron-1, Xumson-1, Xumson-2 va Sijjak-1 shakllari dengiz sathidan 1400 metrgacha, Parkent-2, Nazorat variant, Xumson-3, Xumson-4, Xumson-5, G'azalkent-1, G'azalkent-2 va G'azalkent-3 shakllari 1400-2000 metrgacha, Parkent-2 shakli esa 2002 metr balandlikda o'sayotganligi aniqlandi tadqiqot natijalari keltirilgan.

GreK yong'og'i shakllarinining tashqi omillarga chidamliligini baholash. Sovuqqa chidamliligi bo'yicha Sijjak-1, Xumson-3 va Parkent-2 shakllari 5 ballik shkalada baholandi. Ushbu daraxtlarda sovuq ta'sirida zararlanish holatlari kuzatilmadi. G'azalkent-2, G'azalkent-3 va Xumson-4 shakllaridagi daraxtlarning bir yillik novdalari qisman (bir yillik novdal arning 1/3 qismi sovuq ta'sirida zararlangan) zararlanganligi sababli ular 4 ball bilan baholandi. Qolgan shakllarda esa bir va ikki yillik novdalarning zararlanishi natijasida hosilning ham qisman (2-3%) kamayishi kuzatilganligi sababli ular 3 ball bilan baholandi. Kuzatuvlar va tahlil natijalari asosida tanlangan shakllarning barchasi qurg'oqchilikka yuqori darajada chidamsiz ekanligi aniqlandi.

G'azalkent-1, Sijjak-1, Xumson-2, Xumson-3 va Parkent-2 shakllari novdalaridagi 10% gacha bo'lgan barglar to'kilganligi kuzatildi hamda ular 4 ball bilan baholandi. G'azalkent-3, Xumson-4 va Ohangaron-1 shakllarda esa qurg'oqchilik vaqtida barglarning to'kilish darajasi 41-60% gacha bo'lgan ko'rsatkichni tashkil etganligi sababli ular 2 ball bilan baholangan bo'lsa, qolgan shakllar 3 ball ko'rsatkichi bilan baholandi

Tanlangan shakllarning chidamlilik darajasini baholash natijalarining umumiy ko'rsatkichi Sijjak-1, Xumson-3 va Parkent-2 shakllarda 12 ball, G'azalkent-1, G'azalkent-2 va Xumson-2 shakllarda 10 ball, Nazorat variant, Xumson-1 va Parkent-1 shakllarda 9 ball, G'azalkent-3, Xumson-4 va Xumson-5 shakllarda 8 ball, Ohangaron-1 shaklida esa 7 ball qiymatni tashkil etdi. Bu esa G'arbiy Tyan-Shan hududida o'sib-rivojlanayotgan Sijjak-1, Xumson-3 va Parkent-2 shakllarini chidamlilik darajasini yuqori ekanligini anglatadi

GreK yong'og'ining tanlangan shakllari hosil berish ko'rsatkichlarini baholash. Shakllarning seleksion baholash ko'rsatkichlaridan biri bu ularning hosil shakllanishiga asoslangan bo'lib, bunda ularning hosildorligi, hosildorlikning o'zgarishi, vegetatsiya davrining davomiyligi va mevalarning pishib yetilish muddatlari tahlil etildi.

Hosildorligi bo'yicha tanlangan istiqbolli shakllar 3 balldan 6 ballgacha bo'lgan ko'rsatkichlar bilan baholandi. Ushbu shakllar orasida G'azalkent-3, Xumson-3, Xumson-4 va Parkent-2 shakllarining yon novdalaridagi mevalarning mavjudlik darajasi G'azalkent-1, G'azalkent-2, Sijjak-1, Xumson-4 va Xumson-5 shakllariga nisbatan 15-20% yuqori bo'lganligi sababli ular 6 ball bilan baholindi. Parkent-1, Nazorat variant, Xumson-2 va Oxangaron-1 shakllarining yon shoxlarida hosil mavjud bo'lmaganligi hamda asosiy hosil o'suv kurtaklarining pastki qismlarida joylashganligi bilan yuqori ballga ega bo'lgan nisbatan past ball ya'ni 4 ball bilan baholandi. Qolgan Xumson-1 shakli kuchsiz hosildorlikka egaligi sababli 3 ball bilan baholandi (3.10-jadvalga qarang).

Tanlangan shakllarning hosil berish davomiyligi 3 ballik shkala bilan baholanib, bunda hosildorlikning doimiyligi inobatga olindi. Kuzatuv natijalariga ko'ra G'azalkent-1, Sijjak-1, Xumson-1, Xumson-3 va Parkent-2 shakllarining har yili hosil berishi aniqlandi hamda ular 3 ball bilan baholandi. Xumson-4 va Oxangaron-1 shakllarida esa hosil berish ko'rsatkichlarida aniq muddat mavjud bo'lmaganligi sababli ular 1 ball bilan baholandi. Qolgan shakllar (Nazorat variant, G'azalkent-2, Xumson-2, G'azalkent-3, Xumson-5 va Parkent-1) esa 2 ball bilan baholandi Olingan natijalar asosida nazoratga nisbatan, eng kam ko'rsatgich Xumson-1, Xumson-2 va Oxangaron-1 shaklida 81 %ni, eng yuqori ko'rsatgich esa Sijjak-1, Xumson-3 va Parkent-2 shakllarida 127% ni tashkil etdi.

Vegetatsiya davri davomiyligi bo'yicha baholash ishlarini amalga oshirishda tanlangan shakllarning vegetatsiya davrini boshlashi va tugallashi inobatga olindi.


Grekk yong'og'i shakllari mevalarining tahlili ko'rsatkichlari. Tanlangan shakllar orasida Sijjak-1 shakli juda yirik bo'lganligi hamda og'irligi 14,1 g dan yuqoriligi sababli uning 1 kg mevasidagi yong'oqlar miqdori 61 tani tashkil etdi. G'azalkent-3 va Xumson-3 shakllarining mevalari yirik (1 dona yong'oq og'irligi 12,1-14,0 g) bo'lib 1 kg da 71-81 dona yong'oq mavjud ekanligi aniqlandi.

G'azalkent-2, Parkent-1 va Oxangaron-1 shakllari esa o'rta (1 dona yong'oq og'irligi 10,1-12,0 g, 1 kg dagi yong'oqlar miqdori 83-99 dona), G'azalkent-1, Xumson-1, Xumson-2, Xumson-4 va Parkent-2 shakllari mayda (1 dona yong'oq og'irligi 8,1-10,0 g, 1 kg dagi yong'oqlar miqdori 100-124 dona), Nazorat variant va Xumson-5 shakllari esa juda mayda (1 dona yong'oq og'irligi 6,1-8,0 g, 1 kg dagi yong'oqlar miqdori 125 donadan ko'p) guruhlarga mansub ekanligi aniqlandi (1-rasmga qarang).

Ularning meva og'irlik ko'rsatkichlari 3 ball bilan baholangan shakllarga nisbatan 1,02-1,2 marotaba yuqori ekanligi aniqlandi. G'azalkent-1, Xumson-1, Xumson-, Xumson-3, Xumson-4, Xumson-5 va Parkent-2 shakllari esa meva og'irligi bo'yicha past ko'rsatkichga ya'ni $8,3 \pm 0,44$ – $10,1 \pm 0,71$ g ni tashkil etdi.

Tanlangan shakllarning yong'oq uzunligi 31,6 – 37,6 mm, halqa bo'yicha diametri 27,8 – 31,9 mm, yon tomonla diametri esa 27,4 – 31,6 mm ko'rsatkichni tashkil etdi. Bunda yong'oq uzunligi 35,1 – 38,0 mm, halqa va yon tomon bo'yicha diametrlari 30,1 – 32,0 mm ni tashkil etgan G'azalkent-3 ($36,7 \pm 0,05$ mm, $31,6 \pm 0,23$ va $30,7 \pm 0,23$ mm), Xumson-3 ($37,6 \pm 0,08$ mm, $31,3 \pm 0,09$ va $30,8 \pm 0,09$ mm) va Parkent-2 ($35,6 \pm 0,09$ mm, $31,9 \pm 0,04$ va $31,6 \pm 0,04$ mm) shakllari 3 ball,

yong‘oq uzunligi 31,1 – 35,0 mm, halqa va yon tomon bo‘yicha diametrlari 29,1 – 30,0 mm bo‘lgan.



1 -rasm. Grek yong‘og‘i shakllarining 1 kg dagi yong‘oqlar miqdori, dona


Nazorat variant, G‘azalkent-1, G‘azalkent-2, Sijjak-1, Xumson-1, Xumson-2, Xumson-5, Parkent-1 va Ohangaron-2 shakllari 2 ball bilan baholandi. Tanlangan shakllardan Xumson-4 shakli 1 ball bilan baholangan bo‘lsa, 4 va 5 ball ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shakllar mavjud emasligi aniqlandi

Tanlangan shakllar yong‘oqmevalarining bir xilligini baholashda 1 kg dagi yong‘oqlar o‘lchamlari va og‘irligi ko‘rsatkichlari asosida tahlil o‘tkazildi. Shakllar bo‘yicha tahlil etilganda eng yuqori ko‘rsatkich Xumson-3 (84,9%) va Parkent-2 (84,3%) shakllarida kuzatilgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich Ohangaron-1 (61,3%) shaklida ekanligi aniqlandi. Baholash bali bo‘yicha 80% dan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan Sijjak-1, Xumson-3, Xumson-5 va Parkent-2 shakllari 3 ball, qolgan shakllar esa 2 ball bilan baholandi.

Mag‘iz chiqish darajasi Sijjak-(1 57,1%), Xumson-5 (57,8%), G‘azalkent-3 (55,5%) va Parkent-2 (57,2%) shakllarda 56,1% dan yuqori (5 ball), G‘azalkent-1 (54,3%) shaklida 53,1 – 56,0% oralig‘ida (4 ball), Parkent-1 (49,2%), Nazorat variant (52,6%), Xumson-1 (52,6%), Xumson-2 (51,1%) va Xumson-4 (50,0) shakllarida 49,1 – 53,0% oralig‘ida (3 ball), qolgan shakllarda esa 45,1% dan past ekanligi (1 ball) aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Dissertatsiyaning «**Greк yong‘og‘ining tarqalishi va tabiiy ko‘payishini baholash**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida G‘arbiy Tyan-Shanning tabiiy yong‘oqzor tarqalgan hududlaridan tanlab olingan daraxt turlarining ekologik omillarga munosabati o‘rganilgan. Bashoratlash natijalariga ko‘ra *Juglans regia*

umumiy tarqalish maydonining kamayishiga bioqlim parametrlarining yuqori foizda ekanligi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.



2-rasm. Yong'oqzorlarning tabiiy ko'payish darajasi (Parkent va Sijjak o'rmon bo'limi)

G'arbiy Tyan-Shandagi yong'oqzorlarning holati va tabiiy tarqalishi. Asosan o'rmondagi mevali daraxtlarning tabiiy tarqalishini baholash uchun daraxtning holati, gullash xususiyati va mevalarning saqlanib qolish darajasi o'rganildi. Parkent o'rmon bo'limi Oqsoqota tog'li hududining N41°24'18", E69°52'47" va N41°27'52", E69°53'35" kordinatalari amalga oshirilgan ishlar keltirib o'tilgan. Piskom o'rmon bo'limi, Piskom daryosining o'ng qirg'og'i shimoliy tog'ining N41°54'57", E70°19'48" va N41°51'57", E70°18'19" kordinatalari atrofida o'rganildi. Sijjak o'rmon bo'limi, Bocholisoy, Olmazor O'rta qir, Sovuq buloq o'ng va chap qirg'oqlarining N41°40'10", E69°58'34" va N41°44'20", E70°04'04" kordinatalari atrofida amalga oshirildi. Xar bir o'rmon bo'limi 1 gektardan 11 ta maydonda olib borilgan kuzatuvlar natijasida aralash o'rmonlarda sanoq olib borildi.

Tog' qiyaligi ekspozitsiyasi va dengiz sathidan balandligining grek yong'og'i tarqalishiga ta'siri. Yong'oqzorlar Parkent tumanidagi tog' qiyaliklarining asosan Janubiy va Shimoliy G'arbiy ekspozitsiyalarda tarqalgan bo'lib, tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining tahlili dengiz sathidan balandliklarga bog'liq ekanligi tasdiqlaydi.


Relyef notekis va nishabligi juda yuqori bo'lgan joylar, Bo'stonliq tumani hududidagi yong'oqzorlarning tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari o'rganish va baholash uchun Sijjak hududidagi shimoliy ekspozitsiyalarida, Boladala hududidagi janubiy ekspozitsiyalarda o'rganildi.

Grek yong'og'i istiqbolli shakllarini kompleks baholash natijalari, ball

No	Grek yong'og'i shakllari	Sovuqqa chidamliligi	Qurg'oqchilikka chidamliligi	Kasallikka chidamliligi	Hosildorligi	Hosildorlikning o'zgarishi	Vegetatsiya davri davomiyligi	Mevaning pishib yetilishi	Meva ogirligi	Meva o'lchamlari	Mevaning bir xilligi	Meva po'stlog'ining qalinligi	Mag'iz to'liqligi	Degustatsion bahosi	Mag'iz chiqish darajasi	Umumiy ball	Kompleks baholash bali
1	Parkent-2 st	3	3	3	4	2	3	2	1	2	2	3	3	3	3	37	3
2	G'azalkent-1	3	4	3	5	3	2	2	2	2	2	0	2	4	4	38	3
3	G'azalkent-2	4	3	3	5	2	2	2	4	2	2	2	3	4	1	39	3
4	G'azalkent-3	4	2	2	6	2	3	3	3	3	2	2	2	3	4	41	4
5	Sijjak-1	5	4	3	5	3	1	2	5	2	3	3	4	4	5	50	4
6	Xumson-1	3	3	3	3	3	2	1	2	2	2	1	2	3	3	33	3
7	Xumson-2	3	4	3	4	2	2	1	2	2	2	0	3	4	3	35	3
8	Xumson-3	5	4	3	6	3	2	3	4	3	3	3	4	4	1	48	4
9	Xumson-4	4	2	2	6	1	1	1	2	1	2	0	2	3	3	30	2
10	Xumson-5	3	3	3	5	2	3	2	2	2	3	3	3	4	5	43	4
11	Parkent-1	3	3	3	4	2	3	3	3	2	2	2	3	4	3	40	4
12	Parkent-2	5	4	3	6	3	3	2	2	3	3	3	4	4	5	50	5
13	Oxangaron-1	3	2	2	4	1	3	1	3	2	2	0	1	3	1	28	2

Tadqiqotlar dengiz sathidan balandligi 500 metrdan 2500 metrgacha bo'lgan maydonlarda amalga oshirildi. Dengiz sathidan 500-1000 metr balandliklardagi Janubiy ekspozitsiyalarda grek yong'og'i yosh nihollarining miqdori 12 ta bo'lgan bo'lsa, Shimoliy va G'arbiy ekspozitsiyalarda 30 tani tashkil etdi. 1000-1500 metr balandliklardagi Janubiy ekspozitsiyalarda 15 ta, Shimoliy va G'arbiy ekspozitsiyalarda 35 ta, 1500-2000 metr balandliklarda 10 va 40 ta, 2000-2500 metr bo'lgan hududlarning faqatgina shimoliy va g'arbiy ekspozitsiyalarda 15 ta mavjud ekanligi aniqlandi. Yong'oq yosh nihollarining shimoliy va g'arbiy ekspozitsiyalarda ko'pligi uning namlikka talabchan tur ekanligini tasdiqlaydi.

Yong'oqzorlarning tabiiy ko'payishining o'ziga xos xususiyatlari. O'rmonlarda urug'lar shamol, suv, qushlar, o'rmon hayvonlari yordamida tarqalishi bizga ma'lum shu qatorda yong'oq urug'lari ham yuqoridagi omillar ta'sirida tarqaladi. Yerga tushgan hamma urug'lar ham nihol bo'lib una olmaydi. Kuzatuvlar natijasida xarorat 10-12 °S bo'lganda urug'lar una boshlab, 15-20°S da unish jadallashdi. Yillar davomida nihollarning saqlanish va yashab qolish ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin dastlabgi yillarda 83 dona mavjud bo'sa ikkinchi yili 6 dona va uchinchi yili 1 ga maydonda 2 dona saqlanib qoldi. Sijjak o'rmon bo'limi himoyalangan bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan nihollarning saqlanib qolish ko'rsatkichi birmuncha yuqoriligi aniqlandi.



3-rasm. Sovuqdan so'ng vegetativ va generativ organlarning qayta tiklanish ko'rsatkichlari, %

Yillar davomida nihollarning saqlanish va yashab qolish ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin dastlabgi yillarda 119 dona mavjud bo'sa ikkinchi yili 15 dona va uchinchi yili 7 dona saqlanib qoldi. Grek yong'og'ining tabiiy ko'payishidagi asosiy kamchilik odamlar tomonidan uning hosilini muntazam terilishi, hamda daraxtda umuman hosilning qolmasligidir.


Tabiiy yong'oqzorlarning bahorgi sovuqlarga munosabati. Grek yong'og'ining tashqi muhit omillariga chidamliligini baholashda yana bir ko'rsatkich bu bahorgi sovuqlardan zararlanishini tahlil etish hisoblanadi. Grek yong'og'ining bahorgi sovuqlardan zararlanishini kuzatish maqsadida G'arbiy Tyan-Shanning tabiiy yong'oqzor tarqalgan hududlaridan har birida 10 tadan yong'oq daraxti mavjud bo'lgan 5 ta tajriba maydoni tanlab olindi. Buning

natijasida tajriba maydonchalaridagi daraxtlarning zararlanish darajasi 30 – 60% ni tashkil etdi. Kuzatuvlarda katta yoshli daraxtlarning sovuqdan zararlanishi yosh daraxtlarga nisbatan 20-30% ga past ya'ni 2 yoshli daraxtlarda 50 – 60% bo'lgan bo'lsa, 10 yoshlilarda 45%, 14 yoshlilarda 31% va 16 yoshli daraxtlarda esa 30% ekanligi aniqlandi.

2021 yilning mart-aprel oylaridagi yeng sovuq kunlar 1⁰S ni, 2022 yildning mart-aprel oylaridagi yeng sovuq kunlari esa 0⁰S ni tashkil etdi. 0-1⁰S haroratda zararlanish holatlari kuzatilmadi.

Yong'oqzorlarning holati va ularni yaxshilash chora tadbirlari. Tabiiy yong'oqzorlarni muhofaza qilish tabiiy ko'payishiga ko'maklashuvchi tadbirlar ishlab chiqish amaliy ahamiyatga egadir. Tabiiy yong'oqzorlar tadqiq qilinganida ularning 54-87% yosh yong'oq ko'chatlari yong'oqzorlar ostida, 13-46% yong'oqzorlar yaqinidagi ochiq maydonlarda uchrashi aniqlandi. Yong'oq ko'chatlarining aksariyati yong'oq daraxti shox-shabbasi ostida bo'lib, 15 yoshgacha ularning atigi 3,5-7,5% saqlanib qoladi holos. Yong'oqzorlardagi 20 yoshli daraxtzorlarda ushbu ko'rsatgich 0,7-1,8% ni tashkil etadi. Aksincha yong'oqzorlar atrofidagi ochiq maydonlardagi ko'chatlarning 30-45% 5 yoshgacha, 13-20% 10 yoshgacha saqlanib qoladi. Yong'oqning madaniy o'rmonlari ochiq maydonchalarda, chuqur yuvilmagan tuproqlarda. Yillik yog'in miqdori 700-800 mm bo'lgan yong'oq mevalilar ko'chatlaridan barpo etish zarur. Yong'oqni madaniy o'rmonlari ham urug'dan ham ko'chatlar orqali ko'paytiriladi. Olma, tog'olcha albatta ko'chat bilan ekiladi. Tabiiy yong'oqzorlarni yorug'lik o'tkazish, parvarishlash va siyraklashtirish maqsadlarida kesish. Istiqbolli shakl va navlardan foydalangan holda ularni yangilash. Mavjud maydonlardagi yong'oqzorlarda kasallik va zararkunandalarga qarshi ko'rashish chora tadbirlarini ishlab chiqish. Yong'oqning tabiiy o'rmonlari atrofida, ochiq maydonchalarda, yuvilmaydian chuqur tuproqlarda. Yillik yog'in miqdori 700-800 mm bo'lgan hududlarda ko'chatlari har xil buta va butasimon daraxt maydonchalarini barpo etish zarur. Tabiiy yong'oqzorlarni qo'riqlanish darajasini kuchaytirish zarur. Yong'oq mevasini yig'ib terib olish davrida urug'chi daraxtlarni yoki urug'chi shoxlardan qoldirish kerak. Chorva mollarini mavsumiy boqilishini tartibga solish lozim.

O'zbekiston hududida *Juglans regia* (grek yong'og'i) ning keng tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish. Toshkent viloyati misolida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki mavjud yashash joylari. Muzliklar aro (LMG (22)) davrda 2300 km² (±25 km²) tashkil qilgan bo'lsa, yaqin o'tmishda (1970-2000), 1725 km² (±25 km²), CURRENT davrda 1900 km² (±25 km²), RCP 2.6 (2070) 1550 km² (±25 km²), RCP 8.5 (2070) 1500 km² (±25 km²) qiymatlarga ega bo'ldi (4.24-rasm). CURRENT davrdagi 1900 km² dan RCP 8.5 (2070) 1500 km² ga kamayadi yani 400 km² maydonga qisqarishi mumkin. Tahliliy natijalarga ko'ra kelajakda ushbu turning potensial o'sish maydonlari kamayadi, bu Janub hududidagi potensial o'sish nuqtalarining kamayishi va siljishi bilan izohlanadi.



CURRENT davri uchun

RCP 8.5 (2070) davri uchun

4-rasm: RCP 8.5 -2070 ssenariysi Toshkent viloyati misolida

Olingan natijalarga ko'ra *Juglans regia* tarqalishi uchun qulay iqlim sharoiti mavjud hududlar O'zbekiston umumiy maydonining yaqin o'tmish uchun (1970-2000 yillar) 1,4%, CURRENT davrida esa 1,3 %, LMG davrida esa 1,4% tashkil qilsa, iqlim ssenariylariga ko'ra RCP2.6-2070 1,1%, RCP8.5-2070 1,2% ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

Grek yong'og'i shakllariniing iqtisodiy samaradorligi. Istiqbolli deb tanlangan shakllar boshqa shakllarga nisbatan xaridorgirlik ko'rsatgichlari bilan ajralib turadi. Qolaversa tannarxida ham boshqa shakllarga nisbatan 50% dan yuqoriligi kuzatildi. Parkent-3 nazorat, G'azalkent-1, G'azalkent-2, Xumson-1, Xumson-2, Xumson-4, Xumson-5, Parkent-1 va Oxangaron-1 shakllar kam qimmatlari yani 12 000 ming so'm deb hisoblandi. Bu shakllardan 1 ga. dan o'rtacha 5 280 ming so'm daromad olinadi.

Xumson-3, Parkent-2 va Sijjak-1 shakllari bozor narxi 21 000 ming so'm deb topildi. Tanlangan shakllardan 1 ga. dan o'rtacha 79 800 ming so'mdan 141 225 ming so'mgacha daromad olinadi. Istiqbolli shakllar boshqa shakllarga nisbatan 9 315 dan 12 000 ming so'mgacha foyda olish mumkinligi o'rganildi.

XULOSALAR VA TAVSIYALAR

1. O'zbekiston hududida yong'og' o'rmonlari unchalik katta bo'lmagan maydonlarda, asosan dengiz sathidan 750-1250 m balandliklarda, G'arbiy Tyan-Shanning hamda Ugom tog'lari tizmalari yonbag'irlari va vohalarda joylashgan. Ba'zan alohida daraxtlari 2000 m balandliklarda ham o'sadi. Yong'og' o'rmonlarining eng katta maydonlari Piskom daryosi havzasidir. Tabiiy yong'og'zorlar Oqsoqota, Nurakota, To'palangdaryo, Obizarang daryolari havzalarida uchraydi.

2. Grek yong'og'ining tinim davridagi daraxtlari $-25,-30^{\circ}\text{C}$ da ham zararlanmaydi. Ammo vegetatsiya davrida boshqa o'simliklar singari sovuqdan zararlanish holatlari uchraydi. Bunda asosan kurtak va gullar juda ko'p zarar ko'radi. Sovuqdan so'ng yong'og'ning qayta tikanishi gullarida 17-18% ni, kurtaklarda 60-63% ni, novdalarda 77-79% ni va barglarning qayta rivojlanishi 97-98% ni tashkil qiladi.

3. Tabiiy yong'og'zorlar qimmatli genofondga ega bo'lib, ular orasida turli bioekologik xususiyatga ega bo'lgan shakllar juda ko'p. Tanlangan shakllardagi meva sifat ko'rsatkichlari orasidan yong'og' mag'zining chiqish darajasi yuqori ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ko'rsatkich 39,7-57,8 ni tashkil etdi. Xalqaro

ko'rsatkichlar bo'yicha, yong'oq mag'zining chiqish darajasi 50% dan yuqori bo'lgan shakl istiqbolli ekanligini inobatga olsak, Parkent-2 (57,2%) va Xumson-5 (57,8%) shakllari istiqbolli ekanligini anglatadi.

4. Yong'oqzorlarning tabiiy ko'payishining kuzatish, natijasida 1 gektardagi yong'oqlar soni 9-77 donaga teng ekanligi, hamda ushbu daraxtlarning o'rtacha diametri 0,5 metrdan 1,8 metr, balandligi esa 14-21 metrni tashkil etishi aniqlandi.

5. Yong'oqzorlardagi tabiiy ko'payishida 10x10 m² maydonchalardagi 1-2 yoshli nihollar soni 2-5 dona, 3-5 yoshlilari 1-3 dona, 6-10 yoshli daraxtlar esa ayrim hududlarda 1 donani tashkil etdi. Yong'oqzorlarning ko'payishi asosan Shimoliy va G'arbiy ekspozitsiyalarda kuzatildi.

6. Janubiy ekspozitsiyaning d.s.b 1000-1500 metr balandlikda yong'oqzorlar boshqa hududlarga nisbatan yaxshi o'sib-rivojlanishi, Shimoliy va g'arbiy tog' qiyaliklarida esa d.s.b 500-2000 metr bo'lgan qiyaliklarda grek yong'og'i uchrashi hamda yaxshi o'sib-rivojlanishi aniqlandi. Undan yuqori balandliklarda esa past bo'yli bo'lib o'sishi va kam hosil berishi kuzatildi.

7. Yong'oqzorlar tabiiy tarqalishi Maxent dasturi bo'yicha tahlil etilganda, *Juglans regia* ning kelgusida taxminiy o'sish taqsimoti, Toshkent viloyati misolida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki mavjud yashash joylari. Muzliklar aro (LMG (22)) davrda 2300 km² (± 25 km²) tashkil qilgan bo'lsa, yaqin o'tmishda (1970-2000), 1725 km² (± 25 km²), CURRENT davrda 1900 km² (± 25 km²), RCP 8.5 (2070) 1500 km² (± 25 km²) ga kamayadi yani 400 km² maydonga qisqarishi mumkin. Tahliliy natijalarga ko'ra kelajakda ushbu turning potensial o'sish maydonlari kamayadi, bu Janub hududidagi potensial o'sish nuqtalarining kamayishi va siljishi bilan izohlanadi

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan quyidagilar:

1. Yong'oqzorlar barpo etishda Parkent tumanida Parkent-2, Bo'stonliq tumanida esa G'azalkent-3 va Sijjak-1 shakllaridan foydalanish;
2. Bahorgi kechki sovuqlardan saqlab qolish uchun esa Xumson-5 va Ohangaron-1 shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.
3. Tabiiy yong'oqzorlardagi tabiiy ko'payishni oshirish chorva mollarini boqishni tartibga solish yoki 3-5 yil davomida chorva mollari boqishni ta'qiqlash tavsiya etiladi.
4. Yong'oqzorlarda mevalarni terish davrida urug'chi daraxtlarni yoki shoxlarni qoldirish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/29.04.2022.Qx. 13.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТУЛАЕВ ДОНИЁР БАХТИЁРОВИЧ

**ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕСТЕСТВЕННОГО ВОЗОБНОВЛЕНИЯ
И ОТБОР ПЕРСПЕКТИВНЫХ ФОРМ ГРЕЦКОГО ОРЕХА В
ЗАПАДНОМ ТЯНЬ-ШАНЕ**

**06.03.01 – Лесные культуры. Селекция, семеноводство и озеленение городов.
Агролесомелиорация и защитное лесоразведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2022/1.PhD/Qx884.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tdau.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Кайимов Абдихалил**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты: **Тухтаев Бобокул Ёркулович**
доктор биологических наук, профессор

Мисирова Сурайё Абдумуталовна,
доктор сельскохозяйственных наук, доцент.

Ведущая организация: **Научно-исследовательский институт лесного хозяйства**

Защита диссертации состоится 5 декабря 2023 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.05/28.08.2022.Qx.13.04 при Ташкентском государственном аграрном университете (Адрес: 100140, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 2. Тел: (+99871) 260-48-00; факс: (+99871) 260-38-60;. e-mail: tgau@edu.uz. Административное здание Ташкентского государственного аграрного университета, 1-этаж, зал заседаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрировано под номером 549254). (Адрес: 100140, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 2. Ташкентский государственный аграрный университет, здание Информационно-ресурсного центра. Тел.: (+99871) 260-50-43).

Автореферат диссертации разослан 23 ноября 2023 года.
(реестр протокола рассылки №74 от 24 октября 2023 года).



Э.Т. Бердиев
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.с.х.н., профессор

М.З. Холмуротов
Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.ф.с.х.н., (PhD), доцент

С.А. Юнусов
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению учёных степеней,
д.с.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Грецкий орех считается ценным пищевым продуктом во всем мире, дерево естественно растёт и культивируются во многих странах. Для экспорта плодов грецкого ореха созданы плантации на основе перспективных сортов. В частности, исходя из сортов, подходящих для регионов, "ореховых рощ в Китае 631,13 тыс. га, в США - 147,71 тыс. га, в Турции - 124,553 тыс. га, в Мексике - 102,068 тыс. га". Важно проанализировать естественное воспроизводство ореховых насаждений и отбор новых перспективных форм для повышения эффективности их использования.

